

PIRIMQUL QODIROVNING "ONA LOCHIN VIDOSI" ROMANI VA O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARLARIDA ONA TIMSOLI

Sunnatova Dilfuza Sherzod qizi

TAFU O‘T 3-kurs talabasi

sunnatovadilfuza86@gmail.com

+998933503119

Ilmiy rahbar: Abdialimova Maxafuza Safarboy qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov va Pirimkul Qodirovning asarlaridagi ona obrazi talgini va obrazdagi o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritiladi,

Kalit so‘zlar: onalar, mehr, jannat, tarbiya, quvonch, hayot, muhabbat, dunyoning ishlari, tasavvur, alla, ayol, farzand, lochin.

Annotation. This article will reflect on the talg of the image of the mother in the works of O‘tkir Hoshimov and Pirimkul Kadyrov, as well as on its own aspects in the image

Keywords: mothers, affection, Paradise, upbringing, joy, life, love, affairs of the world, imagination, alla, woman, child, Falcon.

“Ona” siymosi dunyoning jamiki xalqlarida mo‘tabar zot sifatida e‘zozlanib, xalqning adabiy merosida alohida g‘oya va obraz bo‘lib shakllangan. Inson tug‘ilibdiki o‘z onasidan ta’lim va tarbiyani oladi. Burgut o‘z polaponini qanotlari ostidan hech qo‘ymaganidek onamiz ham bizni bag‘rida asrab avaylaydi. Zulmatli kunlar qora qarg‘a kabi boshing ustida charx ura, o‘z shu’lasi bilan sening hayotingni yorituvchi, seni yorug‘ kunlar tomon olib chiquvchi, mehr-muhabbatini, qalbini o‘z dunyosini qurbon qilib, farzandi uchun jonini beminnat bera oluvchi mehri daryo, ochlikdan sillasi qurib, o‘lim arafasiga kelib qolsa ham, o‘z zurriyoti uchun bir burda nonini ham ayamaydigan, so‘ngi nasibasini

bolasiga bera oladigan, barmog‘ingga nogahon zirapcha kirsazobingni o‘zida his qiluvchi. Oyoqlari ostida jannatni bosib turuvchi buyuk zot - onamizdir!

Ma’naviy poklikni o‘zida mujassamlashtirgan timsol, o‘z manfaatini ko‘zlamaydigan, samimiy, ko‘ngli ochiq, odam qalbida qanday oliyjanob tuyg‘ular va yuksak fazilatlar mavjud bo‘lsa, bularning barchasi avvalo ona siymosidadir. Hozirgi o‘zbek adabiyotida “Ona” obrazini yuqori darajaga ko‘tarib, bu muqaddas timsolni yaqqol, go‘zal va betakror siymo sifatida yarata olgan usta ijodkor, yozuvchi, “ Hayot qozonida qaynagan adib” O‘tkir Hoshimovdir.

O‘tkir Hoshimov asarlaridagi qahramonlariga o‘zgacha ruh va fazilat yuqtirgan. Adibning “Dunyoning ishlari” qissasi hech mubolag‘asiz onalar uchun o‘rnatilgan haykal bo‘ldi. Asardagi har bir ona timsoli benuqson va soddalik bilan tasvirlangan. Ijodkor asarning har bir bo‘limidagi ona obraziga sharqona, o‘zbekona ruh singdirgan. Ushbu ona timsolining xarakter-xususiyati adibning boshqa asarlaridagi ona obrazlariga ham ko‘chdi, deb bemalol aytish mumkin. Chunki O‘tkir Hoshimov ushbu asarda tom ma’noda o‘zbek onasini bor fazilatlari bilan yaratgan edi.

Muallif har bir hikoyasi yakunlanishi bilanoq ushbu hikoyaga kichik parchalar qoldirib ketadi. Masalan “Yulduzlar to‘la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorug‘ yulduzlar onalarning jonidir” , "ilgari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo‘lmaydi", "onalar farzandlari hamisha birga bo‘lishini istaydi" va shu kabilar. (Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Qissa - Toshkent.: O‘qituvchi .2018.)

“Ona” obrazi muallifning faqatgina o‘tgan voqealarni tasvirlash bilan, o‘z onasi timsolida dunyodagi ideal onani tasvirlash bilan chegaralanib qolmasdan, balkim o‘z onasi siymosida sharq ayollarining obrazini to‘liq tasvirlab bera olgan. Yozuvchining ko‘plab asarlari yaratilganiga qirq yildan oshib, zamonning tartib-tamoyillari va insonlarning ong va qalbida yevrilishlar, siyosat va mafkurada o‘zgarishlar kuzatilganiga qaramasdan, insoniylik, insof singari yuksak xislatlarni saqlab qolishi, uni o‘z farzandlarining tarbiyasida qo‘llashi, farzandlariga mehr-muhabbati va samimiyati, aynan sharq ayolining fazilatlaridan biridir.

Misol tariqasida, “Dunyoning ishlari” asarida “Gilam paypoq” novellasida ona obrazini yozuvchi “Ideal ona” sifatida shunday mohirona tasvirlaydiki, u orqali barcha sharq onalarining o‘z farzandiga mehr-muhabbat bobida bir xil, yakdil ekanliklari o‘z farzandiga bo‘lgan o‘z farzandi uchun salomatligini qurbon qilgan ona timsolini ko‘rish mumkin. „Gilam paypoq“ sarlavhali novella hajman kichik bo‘lsa-da, undagi ona obrazi xarakteri ancha keng. Asardagi ona obrazi xarakterini quyidagicha tasniflash mumkin: birinchidan, u farzandi uchun o‘z jonidan kechishga tayyor ayol timsoli; ikkinchidan, har qanday qiyinchilikka, dardga bardosh bera oladigan matonat sohibasi; uchinchidan, soddalik, oqko‘ngillik ham uning muhim fazilatidir.

“Oq oydin kechalar” hikoyasidagi ona har bir insonni qadrlaydigan, uning uchun qayg‘uradigan timsoldir. Voqealar davomida uning tanigan va tanimagan insonlarga birdek mehribonlik ko‘rsatishi bunga dalil. Ayniqsa, osmonda uchgan yulduzga qarab, bir bechoraning joni uzildi deya hayotda umuman bilmagan insoniga joni achishi undagi insoniy fazilatning yana bir ko‘rinishidir:

Goho-goho osmonda bir yulduz uchib qolardi. Hozirgina yonib turgan yulduz to‘satdan lop etardi-yu,ingichka, nurli iz qoldirib g‘oyib bo‘lardi.Onam cho‘chib tushardi:

-Essiz... Bir bechoraning joni uzildi-ya...

Yuragim shuv etib, onamning pinjiga kirardim. Ishqilib boshqa yulduz uchmasin!

Qissada adib ona timsolini yaratishda ikki asosga tayangan: birinchisi, u real borliqda mavjud shaxs, ya’ni ijodkorning o‘z onasi. Asarning boshida muallif bu xususida to‘xtalib o‘tgan: “*Bu qissa katta-kichik novelalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam siymosi bor*”; ikkinchisi, umumlashtirish prinsipi orqali. Bunda ijodkor o‘zbek onasining umumiy xarakter xususiyatlarini bir ona obrazida jamlagan.

Buni quyidagi misollarda yanada ravshan ko‘rish mumkin: Qissa tarkibidagi “Tush” novellasi eng go‘zal va ta’sirlilaridan biri, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Unda o‘zbek onalarining eng muhim fazilati hisoblangan oila va farzandlar uchun fidoyilikni ko‘ramiz. Hayotda quyoshni onaga mengzashlari bejiz emas, quyosh o‘z nurlarini bemminat yer yuziga taratgani kabi ona ham farzandlariga mehrini minnatsiz beradi. Novellada ona

jigargo‘shasidan doimo xavotirda yashaydi. Hatto olamni tark etganda ham farzandini o‘z mehri nuridan bahramand etgisi kelishi asarda mohirlik bilan tasvirlangan. Qisqa qilib aytganda, ijodkor shu kichik asarda onalarga xos ezgu xislatlarning barchasini jamlashga erishgan.

Asardagi har bir hikoya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Chunki undagi ona va farzand muallifning o‘zi hamda uning onasi. Asar onalarga bag‘ishlangani bois uning xarakterini ochishda muallif farzand obrazidan foydalanib ish tutadi. Shu bois qissadagi voqealar boshidan oxirigacha ona va farzand bilan bog‘liq holda kechadi.

“Eng og‘ir gunoh” novellasi ham shulardan biridir. Unda muallif urush yillari va uning ayanchli oqibatlaridan so‘z yuritadi. O‘zining bolalik yillarini hikoya qilish orqali, avvalo, o‘sha davrdagi turmush mashaqqatlarini tasvirlaydi. Undagi ona farzandining ayblarini kechiruvchi, shu bilan birga, unga ziyon yetmasligi uchun o‘sha aybni o‘ziga oluvchi timsoldir. Har bir hikoyaning oxirida o‘ziga xos xulosalar ko‘zga tashlanadi. Ya’ni hikoya so‘ngida so‘zlovchi qahramon o‘zi tufayli onasi aziyat chekkani uchun pushaymonlik his qiladi. Har bir hikoyada zamirida muayyan bir ibrat bor.

Xususan, “Xiyonat” novellasida ona farzandini faqat halolikka, insonlarga yaxshilik qilishga, yomonliklardan qaytishga undaydi. Hayotimiz davomida ko‘plab insonlar bilan yuzlashamiz. Ularning qaysilaridir yaqin do‘stimiz, qaysisidir sevgan yorimiz. Ammo oradan vaqtlar o‘tgandan so‘ng har bir insondan ham xiyonat ta’mini totishingiz mumkin ekan. Hikoyada esa onalar farzand uchun eng yaqin zot sifatida tasvirlanib, undan hech qachon xiyonat ko‘rmaslik ta’kidlangan. Adib ushbu novellaning oxirida: “Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga!”, degan so‘zlar bilan insonni mulohaza qilishga chorlaydi.

“Surat” novellasida esa yozuvchi qisqa dialoglar orqali onalardagi soddalikni, shu soddalik orqali uning qo‘rquvini tasvirlaydi. Qahramonning onasi birgina surat bilan farzandlari va nabiralari xotirasida qolishni istaydi. Uni unutib yuborishlaridan qo‘rqadi. Bu soddalik bilan aytilgan fikrni esa o‘g‘il jiddiy qabul qilmaydi.

“Ermon buvaning tilagi” hikoyasida hayotda hamma narsa jufti bilan yaratilganiga ishoralar seziladi. Bunda bir otaning ayoli vafoti va o‘g‘lining sog‘inchi o‘ziga xos uslubda aks ettirilgan. “Dunyoning ishlari” qissasi chuqur psixologik asar hisoblanadi. O‘qigan har bir insoni ta’sirlantiradi. Qaysidir hikoyalari insonning yuziga tabassum yugurtirsa, boshqa voqealar ko‘zga yosh indiradi. Mazkur hikoyaning oxirida boboning jinni bo‘lib qolishi voqelarni tubdan o‘zgartirib yuboradi. Unda shunday so‘zlar keltiriladi: *“Oltmishvoyim keldi, - dedi Ermon buva iljayib. - Keldi! Kampirim ham keldi. Ikkovlari mozar boshiga ketishdi”*.

Adibning "Dunyoning ishlari" asaridagi "Ikki afsona" hikoyasida yozuvchi onasining ertalab barvaqt turib, ko‘chalarni supurib, ishlaganini eslab o‘tadi. Vaqt o‘tib akasiga onasining ishi yoqmasligi va bu ishni qilmasligini aytganida, onasi halol mehnatning aybi yo‘qligini, peshana teri bilan hayot kechirish, halollikda gap ko‘pligini aytib, farzandlariga halollikni o‘rgatishi, mehnat qilib inson ulug‘lanishi haqidagi so‘zlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Ushbu holat alohida e’tiborga sazovor jihati shundaki, onaning halol mehnati bilan farzandlarini voyaga yetkazishi, ularning oyoqqa turishida va o‘zining halovati, tinch va osuda hayot keltirishlarida o‘zining oddiygina bo‘lsada mehnati va u bilan faxrlanishi shuningdek, insoniylik, insof degan tuyg‘ularidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, psixolog V. Vagnerning fikricha, "Ijtimoiy-psixologik jihatdan onalik tuyg‘usi insonning boshqa hayotiy talablari ya’ni, yashash, ovqatlanish bilan bir qatorda barobar turuvchi xislatdir". Shunday ekan onalik tuyg‘usi dunyodagi eng oliy, beminnat va bebaho tuyg‘udir. Qissada muallif onasining xislatlari qatorida hayot yo‘lida qanchalik mashaqqatlar ko‘rgani, qiyinchiliklarni yengganiga qaramasdan, bola singari ochiqko‘ngil va sodda inson bo‘lib qolgani o‘quvchining e’tiborini o‘ziga tortadi. Bunda "Qarz" hikoyasi ushbu fikrni yana bir bor ta’kidlab o‘tadi. Onaning o‘z bolalariga bo‘lgan muhabbati, ularning yoshligidagi urush girdobi, yo‘qchilik va bir burda nonga zor bo‘lib yashaganlari, begona bolalarga bo‘lgan mehrini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardi. O‘z nafaqa puli hisobidan qo‘shnilarning boshlariga kiyim-kechak, oyoq kiyim va velosiped singari zarur narsalarni olib bergani, onaning farzandlariga vaqtida olib bera olmagan hamda mehrini ulasha olmaganining natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Shu singari mehrning o'lchamli, qiymatli ko'rinishi ham onaning bolaga nisbatan e'tiboridir, agarda ushbu mehr inson qalbidan o'z yo'lini topib ulashilmasa, kelgusida armonga aylanishi mumkin.

Asarning so'ngida "Oq marmar, qora marmar" va "Iltijo" kabi hikoyalar bilan yakunlanadi. Unda qabr boshida turgan farzandning onasi bilan so'zlashuvi aks etgan. Farzand qancha pushaymon bo'lmasin vaqtni ortga qaytarolmaydi, faqat onasing qabri boshida nodon farzand bo'lganidan kechirim so'rashdan boshqa ish qo'lidan kelmaydi. Bunday tasvirlar, albatta, o'quvchini chuqur o'ylashga va xulosa qilishga undaydi.

"Iltijo" qissaning eng so'nggi hikoyasi. Adib ushbu asarda o'z hayotidagi muhim voqeani eslaydi. Oxirgi parchada yozuvchi onasi hayotligida qancha asar yozgan bo'lsa ham, onasiga atab bir asarini bag'ishlamagnligiga afsuslanadi. Ushbu parchadagi eng ta'sirli jumla: "Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim", degan so'zlar bo'ladi.

Darhaqiqat, qissada ona qiyofasi keng va to'laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko'zga tashlanadi. Ona mavzusiga to'xtalgan ekanmiz, endi e'tiborimizni Pirmqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" qaratsak, bilamizki, eng qadimgi asarlar ham ayollarga bag'ishlangan.

Pirmqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asari ham tarixiy roman hisoblanadi. Jumladan, Pirmqul Qodirovning «Ona lochin vidosi» (2001) tarixiy romaniga shunday annotatsiya berilgan: Romanning «Jahon adabiyoti» jurnalida bosilgan birinchi qismi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Yangidan yozilgan ikkinchi qismida Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiydek buyuk siymolarga mehrini bergan fidoiy ona Gavharshod begimning fojiaiy taqdiri tasvirlanadi. Ma'rifatli ona umrining oxirigacha adolat uchun jasorat bilan kurashadi. Iste'dodli yoshlarni tarix sahnasiga chiqishlariga ko'maklashadi.»

Ko'rinadiki, tarixiy roman voqealari Gavharshod begim bilan, uning adolat yo'lidagi jasorati va fojiasi bilan bog'liq. U tarixda qanday kechganini bilishga qiziqishimiz ortadi va romanni varaqlashga ishtiyoqimiz uyg'onadi. Yozuvchi ona lochin obrazini Temuriylar sulolasining onasi bo'lmish Gavharshodbegim timsolida tasvirlaydi. Butun bir sulolaga boshchilik, onalik Gavharshodbegim zimmasiga tushadi. Nevaralar, barcha avlodlarni

kamol toptirishni Gavharbegim oilaning kattasi sifatida ado etadi. Xuddiki ona lochindek ularni ko‘z qorachig‘idek asrashlikni o‘zining sulolaviy burchi deb biladi. Shu o‘rinda biz Gavharbegimni ona lochin qiyos etamiz. Asarda ona lochin haqidagi hikoyaning qisqacha syujeti shunday: *"tog‘da bir ona lochin yashardi ,u har yili pana joyga tuxum qo‘yib jo‘ja ochar edi. Lochin yilgani ketganda ilonlar kelib ,uning tuxumlarini yeyishibdi-yu, o‘rniga o‘zlarining tuxumlarini qo‘yib ketishibdi. Ona lochin mehr bilan tuxumlarni parvarishlabdi. Vaqt soati yetib tuxumlar teshilibdi, ichidan ilonbachchalar o‘rmalab chiqibdi, bundan daxshatga tushgan ona lochin chinqirib, uyasidan ko‘klarga uchib,o‘zini qoyalarga urib faryod yilibdi.Uning faryodidan tog‘lar larzaga kelibdi. Mana shunday lochinning qismati ayanchli bo‘libdi"*.

Gavharshodbegim shu ona lochinning timsolidir. U ham nevaralari ko‘rib faryod chekadi. Begim har on , har daqiqaga farzandlariga mehr ulashishga,ularga nisbatan adolatli bo‘lishga harakat qildi va buni uddasidan chiqdi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Mana shunday ulkan mas'uliyatni Gavharshodbegimga Shohruh Mirzo topshirgan. Bu borada Amir Temurning Bibixonimga qarata: *"Avlodlarimni lochinday yuksakka parvoz etadigan qilib tarbiyalang"*, - deb aytgan xitoblarini Saroy Mulk xonimdan so‘ng Gavharshodbegim ado etadi. Shu sababli ham asar shunday sarlavha bilan nomlangan. Asarda Gavharshodbegim Shohruh Mirzo tomonidan shunchalik e'zozlanganki, Gavharshodbegimga atab qasrlar barpo etilgan. Birgina Oydin bog‘ - Bog‘i Safed fikrimizning dalilidir.

Nafaqat Shohruh Mirzo tomonidan, balki buyuk sarkarda Amir Temur ham yuksak hurmat bilan munosabat bildirgan. Gavharshodbegimga kelinlik hadyasi sifatida tilla sirg‘a ham in'om etadi. Ushbu sirg‘a xonadonni yangi a'zosi ekanliklaridan dalolat beradi. Asar mobaynida Gavharshodbegim juda ko‘p o‘ylar iskanjasida qoladi .Nevaralari Abdullatif va Alauddavla murossasiz to‘qnashuvlari , Amir Temurning Xitoyga yurishi chog‘idagi Gavharshodbegimning iztiroblari yozuvchi tomonidan katta mahorat bilan tasvirlangan. Aslida Shohruh Mirzodek podshohning malikasi bo‘lish , Ulug‘bekdek olimning onasi bo‘lish tashqaridan qaraganda Begim uchun baxt va saodat keltirganday tuyulsa ham unday emasdi.

Mana shunday shohona hayotning ichida ham yechimi yo‘q ziddiyatlar, to‘qnashuvlar shu qadar ko‘p ediki, Gavharshodbegim har biri uchun o‘zini qalqon qilib turishga harakat qilardi. Begimdagi mana shunday xislatlarni biz zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi Jannat xola, Umri xola, Saodat aya va Nayman onaga qiyos etishimiz mumkin. Aynan mo‘tabar onalik hissi mana shu munis o‘zbek ayollarida mujassam. Umri xola hayoti davomida kasalga chalingan o‘g‘li uchun yonib yashadi. O‘g‘lining umrini hech bo‘lmasa soniyalarga uzayishi uchun har ishga tayyor bo‘ldi... Nayman ona- chi? U ham farzand dog‘ida yongan ona emasmi?. Shu jihatdan Gavharshodbegim ham o‘g‘lini sog‘inchida ozorlanmadimi? O‘g‘lidan yiroqda diydoriga tashna bo‘lmadimi? Gavharshodegimning mana shunday ozorli sog‘inch azobini suyuqli o‘g‘li Ulug‘bekka yozgan maktubida ko‘rishimiz mumkin.

- *Ko‘zimning oq-u qorasi ,buyuk o‘g‘lim Mag‘usiddin Muhammad Tarag‘ay , - deb yozar ekan, ko‘zlari yana beixtiyor yoshlandi:*

-Men sizni ko‘rib ,bag‘rimga bosib jon bersam rozi edim. Maktubingizni o‘qiganimda yuzim necha bora ko‘z yoshlarimga yuvindi,ilojsizlikdan bag‘rim ezildi..."

Shuningdek, asarda Ulug‘bekning rafiqasi Husn Nigor xonimning obrazi ham yorqin tasvirlab berilgan. U ona sifatida o‘g‘lini yaxshi fazilatli, otasiga mehrli, vafodor qilib voyaga yetkaza olmaganligi uchun o‘zini gunohkor deb biladi, O‘g‘lining padarkush bo‘lib katta gunohkor bo‘lganligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Lekin nogobil o‘g‘il onasining so‘zini olmaydi natijada tubanlik botqog‘iga yana ham chuqurroq botib boradi. O‘g‘lining qiyofasida otasi Xalil Sultonni ko‘radi. Xalil Sulton ham ko‘plab janglarda necha ming insonlarni boshini kesgan va bu ishidan faxrlangan. O‘g‘li ham xuddi bobosiga o‘xshagan edi. Bu holatdan Husn Nigor xonimning qalbida o‘g‘liga nisbatan qo‘rquv paydo bo‘ladi. Bu qanchalar ayanchli. Onaning iztiroblari qanchalik kuchli. Lekin u shunday holatda ham onalik mehrini beradi. Ha, onalar shunaqa farzandlariga doimo jonkuyar.

Ushbu asarda o‘zbek ayollarining vafoli, iboli, turmush ortog‘iga itoatmand, sadoqatli bo‘lishi kabi fazilatlarini Ulug‘bekning gizi Habiba Sulton obrazi orqali ko‘rishimiz mumkin. Turmush o‘rtog‘i bo‘lmish Abdulla Mirzoni jonini saqlab qolish uchun hech

nimadan qoʻrqmay xatari ishga qoʻl uradi. Abdulla Mirzo hibsonada yotganida uning ruhiyatini koʻtarish uchun maktublar, muhabbat izhoriga toʻla sheʼrlar yozardi. Turmush oʻrtogʻini ogʻir ahvolda tashlab qoʻymadi, balki unga yelkadosh boʻldi. Ayni shu xislatlar oʻzbek ayollariga xos boʻlgan sadoqat, vafo jonkuyarlik, darddoshlik kabi fazilatlarining belgisidir.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, ushbu asarda yozuvchi ayol obrazini, uning xarakter va ruhiy holatlarini, qalblarda kechayotgan kechinmalarini toʻla qonli ifodalay olgan. Biz ularning xarakter va holatlarini portetlari orqali ham bilib olishimiz mumkin. Ayol talqini butun jahon adabiyotining bosh mavzusi boʻlib kelgan. Uning obrazi adabiyotning har bir janrida lirikada ham, nasrda ham oʻz aksini topgan. Ona mavzusi Oʻtkir Hoshimov uchun ham navqiron, abadiy tugallanmas ilhom manbayidir. “Dunyoning ishlari” qissasi muallif har bir farzand vaqtida onasini qadriga yetishi va uning oldidagi burch hamda vazifalarni bajarishi lozimligini eslatadi. Yoʻqsa, vaqlar oʻtgandan soʻng afsus qilishi tayin. oʻttizta novellani oʻzida jamlagan ushbu asar, oʻzbek onalarining kechinmalari, his-tuygʻulari, goʻzal xislatlarini ochib berish bilan birga, farzandlar uchun nasihat hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. P.Qodirov Ona lochin vidosi..."Sharq"nashriyoti.Toshkent.:2001.70-bet
2. P. Qodirov. Ona lochin vidosi. "Sharq"nashriyoti. Toshkent.:2001.3-bet
3. P.Qodirov.Ona lochin vidosi."Sharq"nashriyoti.Toshkent.:2001.69-bet
4. Abdushukurova G. O'tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasi badiiy tahlili/Proceedings of Global Technovation journal. 2020.
5. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. Qissa. - Toshkent.: O'qituvchi. 2018.
6. Hoshimov,O'.Tanlangan asarlar.2-jild. - Toshkent.: Sharq, 2009